

**Samarqand davlat universiteti
o‘zbek filologiyasi fakulteti 204-
guruh talabasi Aktamova**

**Maftuna O‘ktamxon qizining
“TAHLILIY O‘QISH” fanidan**

TAQDIMOT ISHI

Tekshirdi: Boltayev M

Samarqand - 2016



Togʻay Murodning
”Otamdan qolgan dalalar”
romanida
DEHQONQUL obrazi.



Tog'ay Murod – buyuk romannavis



ТОҒАЙ МУРОД


**Отамдан
қолган
далалар**

www.ziyouz.com

**Buyuk
yozuvchining
shoh asari**



Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani ijtimoiy – falsafiy ruhdagi romandir. Chunki yozuvchi o'zining bu asarida mustabid tuzum mohiyatini ya'ni, o'sha davrning haqiqiy qiyofasini, unga olib keluvchi yo'llarni, uning ayanchli asoratlarni bir xalq timsoli tarzida o'rganish, badiiy talqin qilish tarzida falsafiy fikr yuritadi.



Ikki buyuk modern
asar va ikki buyuk
novator ijodkor.


Jeyms Joys
“Uliss”

Tog‘ay Murod
“Otamdan qolgan
dalalar”

- ▶ Buyuk Irland yozuvchisi Jeyms Joys “Uliss” romanini yaratishda o‘z oldiga juda katta maqsadlar qo‘yadi va “Uliss” keyingi yuzyillikda ingliz tilida yaratilgan eng yaxshi asar degan xulosaga kelinadi. “Uliss” daholinsonning fikrlash tarzi, tafakkur mevasidir. Inson zakovatini o‘rganish sari qo‘yilgan katta qadam, inson va hayotning yangicha madhiyasi bo‘lib yangradi.



► Togʻay Murod ham buyuk asarini yaratishda oʻz oldiga ulkan maqsadlar qoʻydi. Togʻay Murodning jahon adabiyoti tarixidagi eng muhim kashfiyoti shundan iboratki, u “Otamdan qolgan dalalar” romaniga qadar mavjud boʻlgan adabiy qoliplarni buzib, insonning erki va asl fikrlash tarzi suratini chizib berdi. Uning «oʻz dunyosi bor, oʻz yoʻli bor, oʻz tili bor...»

A photograph of a field of red tulips in bloom, with green leaves and stems visible. The flowers are in various stages of opening, and the background is slightly blurred. The text is overlaid on the image in a white serif font.

E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, «Uliss» romanida voqealar keng bir makon — Praga, Dublin shaharlari hududida yuz bergani tasvirlansa, «Otamdan qolgan dalalar» romanida asosan bir jamoa xo'jaligi, bir kichkina qishloq hayoti va unda yashaydigan kichkina odamlar hayoti tasvirlanadi.



Jamoliddin ketmon

Aqrab

Dehqonqul

Jamoliddin
ketmon

dehqon

xalqparvar

Aqrabi
chayon

Bog'bon

vatanparvar

Dehqonqul

dehqon

mehnatkash

beparvo

xudbin

Zamonaviy
manqurt




**Dehqonqul – butun umri
ketmon chopib, mustamlaka
yurtda kosasi oqarmay kelgan
o‘zbek dehqonlarining
umumlashma obrazidir.**



- ▶ Muncha shirin ekan bu Sovet davroni –
 - ▶ Mamnun yashar har inson – yo‘qdir armoni.
- Zamonaviy manqurtning
xirgoyisi



A scenic autumn landscape featuring a stream flowing through a forest. The trees are covered in vibrant yellow and orange foliage, and their reflections are visible in the water. The ground is covered with fallen leaves. A blue and black geometric shape is in the bottom left corner.

Dehqonqul yerdan o'zgani
bilmaydigan, tan olmaydigan
va butun dunyoni bir tanobgina
yer timsolida ko'radigan
obrazdir. Unga bu xislat ota
meros, yoin – ki bobomeros
bo'lsa ne ajab.



Adabiyotimizda uzoq yillar davomida paxtakorlar mehnati, ayniqsa, paxtakor xotin – qizlar mehnati juda oson ish tarzida, bayramona kayfiyatda tasvirlab kelinar edi. Ammo bu dabdabali mehnat ortida qanchalik mashaqqat borligini adib birgina “Dehqonqul” obrazi orqali juda keng ko‘lamda ochib bera oldi.



Маматкул Ҳазраткулов
ЧЎЛИ ИРОҚ

“Cho‘li Iroq” o‘zida
qanchalik kuy
go‘zalligini aks
ettirgan bo‘lsa,
“Otamdan qolgan
dalalar” romani o‘zida
shunchalik ma‘no
go‘zalligini aks
ettirgan. Uning “Cho‘li
Iroq” kabi kuyga solib
o‘qilishi shundandir
ehtimol!!!





“Cho‘li Iroq” sog‘inch haqidagi dardli kuy. Romanning bunday kuyga solib o‘qilishida ham teran ma’no bor. Asarining bunday ohangdor o‘qilishi uchun adib Dehqonqul obrazining va bu obraz orqali butun jamiyatning kelajakka, tinch va osuda kunlarga bo‘lgan sog‘inchli dard-u g‘amlarini singdiradi.



XULOSA

Men asarni 1-marotaba o'qiganimda o'qish jarayonida ko'p narsalarni tushunib, yoin-ki, anglab yetmagan edim. Bugun bu asarni qayta o'qish jarayonida biz uni o'zimiz uchun qayta kashf qildik desam mubolag'a bo'lmaydi. Asarni tahliliy o'qish jarayonida o'zbek xalqining boshidan kechirgan dard alam va fig'onlarini eshitdik, ko'rdik va his qildik.

► E'tiboringiz
uchun
tashakkur!

